

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**M.ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA – QURILISH INSTITUTI**

Qurilishni boshqarish fakulteti

REFERAT

Mavzu: Ochik mashg'ulotlarga o'zaro katnashish. nazariy va ishlab chikarish mashg'ulotlarini taxlil qilish. pedagogik va professional malakani muntazam ravishda oshirish.

Bajardi: A.Шопулатов

Tekshirdi: U.Xushvaktov

SAMARQAND - 2014yil

Mavzu: OCHIK MASHGULOTLARGA O'ZARO KATNASHISH. NAZARIY VA ISHLAB CHIKARISH MASHGULOTLARINI TAXLIL KILISH. PEDAGOGIK VA PROFESSIONAL MALAKANI MUNTAZAM RAVISHDA OSHIRISH..

Reja:

- 1. Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish usullari**
- 2. Pedagogik mahorat manbalari va uslubiy ishlarni tashkil qilish**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish natijasida barkamol, malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularni raqobatbardosh, yetuk bo'lib yetishishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan, amalga oshiriladigan uslubiy ishlar muhim o'ringa egadir. Uslubiy ishlar ta'lim tarbiya jarayoni bilan shug'illanadigan har bir o'qituvchi muhandis-pedagog, rahbar hodimlarning o'z malakalarini oshirishda katta ahamiyatga egadir. Chunki, kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlangandek davr talabiga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun avvalambor ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchilaning o'zlari yetuk, yuqori malakali bo'lishlari shart. Bu talabga javob berish uchun har bir o'qituvchi, injener-pedagog, rahbar uslubiy ishlar bilan shug'illanishi va ularda qatnashishi zarur.

O'quv-tarbiya jarayoni ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash masalalaridan biri bo'lib **ta'lim mazmunini** takomillashtirish masalasi turadi. Chunki, ta'lim mazmuni o'quv reja, dasturlar, davlat hujjatlari bo'lib, ularni takomillashtirib borish va to'la-to'kis amalga oshirish natijasida ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligi sababli bu masala uslubiy ishlarda asosiy bo'lib xisoblanadi.

Bizga ma'lumki, kadrlar tayyorlash milliy dastur qabul qilingandan so'ng, ta'lim tizimida yangi bo'g'in o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi paydo bo'ldi va hozirgi kunda 500 dan ortiq kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar tashkil qilindi va faoliyat ko'rsatmoqda.

1998-2004 yillar ichida bu o'quv muassasalarida 280 dan ortiq tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlash amalga oshirilmoqda. Bu tayyorlov yo'nalishlar bo'yicha o'quv rejalari va dasturlar tayyorlangan bo'lib, ular tajriba-sinovdan o'tmoqda. Bu o'quv rejalari umumta'lim fanlar, maxsus fanlar, umumkasbiy fanlar, ishlab chiqish ta'limi amaliyoti ko'rsatilgan bo'lib, ularni takomillashtirishda uslubiy ishlarni amalga oshirilishi katta ahamiyatga egadir.

Metodik ishlar o'quv muassasalaridagi o'quv tarbiyaviy jarayonning holatini o'rganish, ilg'or pedagoglar tajribasini o'rganish, ularni hayotga tadbiq etish orqali amalga oshiriladi.

O'quv muassasasining muhandis-pedagoglarning faoliyati faqatgina nazariy va amaliy bilimlar berish ya'ni darslar o'tish bilan cheklanib qolmaslik ular faoliyatida har bir o'quvchi bilan shaxsiy ishlash, o'z ustida mustaqil ishlash, o'quvchilar guruxi bilan ishlash, o'z fani bo'yicha tashkiliy ishlarni olib borish, kabinet, laboratoriya, o'quv ustaxonalarini tashkil qilish va jihozlash, ota-onalar bilan ishlash, fanlar bo'yicha uslubiy komissiyalar ishida qatnashish va hokozolar bilan bog'liq.

Muhandis-pedagoglarning o'quvchilar guruhi bilan ishlash, ularning ishlarini tashkil qilish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'z ustida har doim tinimsiz ishlashi kerak, buning uchun ular bilimni oshirib va takomillashtirib borish zarur. Chunki, oliy bilim dargohida olgan bilimlari yetarli bo'lmay qoladi. Bu o'z ustida ishlashlar, izlanishlar, yaratishlarning asosida uslubiy ishlar yotadi. Shuning uchun ham muhandis-pedagoglardan o'z mustaqil ishlarini tashkillashtirishda, ularni ilmiy asosida tashkil etish lozim.

Ma'lumki, o'quv muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayoni ta'limiy, tarbiyaviy jarayon bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham muhandis-pedagoglarning o'z ishlarini ilmiy asosida tashkil etishda ularning quyidagi tarkibiy qismlari (elementlari) tadbirlarini amalga oshirish zarur:

-o'quv jarayonida o'quvchilarni davr ruhida g'oyaviy saviyasini oshirish, ularda milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish;
o'quv jarayoniga fan va texnikaning sifat yutuqlarini joriy etish;
-o'quv jarayonini tashkil qilish shakllarini maqbullashtirish, ya'ni dars turlarini qo'llash (dars, birlashgan darslar) ilg'or ishlab chiqarish ustalari bilan birgalikdagi darslar;
-ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishni maqbullashtirish (o'quvchilarda bilimga bo'lgan chanqoqlik, qiziqishlarni boshqarish, tashkillashtirish);
-o'quv jarayonini texnikaviy ta'limotini maqbullashtirish; o'qituvchi va o'quvchi mehnat sharoitini maqbullashtirish.

Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari

Ta'lim muassasasining pedagog va muhandis-pedagoglarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda imkoniyatlari nihoyatda ulkan. Ammo ularni yagona maqsadga yo'naltirish, ular faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish ta'lim muassasasi rahbaridan chuqur bilim va tajribani talab qiladi.

Pedagog kadrlarni malakasini oshirish tizimida ta'sirchanligi va ularga yaqinligi, vaqt, kuchni, moddiy resurslarni iqtisod qilish hamda boshqa jihatlardan qulaylik bilan ajralib turgani o'z ish joylarida, ya'ni ta'lim muassasida malaka oshirishdir. Ta'lim muassasida pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish o'z ichiga quyidagilarni oladi: metodik ishlar, ishlab chiqarish kengashlari; ilmiy-amaliy seminar, konferensiyalar; pedagogik o'qishlar; umumta'lim fan va maxsus fanlar metodik komissiyalari; ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish; darslarga kirish va tahlil qilish; ochiq ko'rgazmali darslar tanlovlar, chet ellar bilan hamkorlik; kompyuter va axborot, informasion-texnik vositalar orqali bilim, tajriba o'rganish va masofada malaka oshirish, kollej rahbarlarining pedagoglar bilan yakka va jamoaviy metodik ishlari va boshqalar. Bu tizimning buncha ko'p qirraligi pedagog kasbining murakkab va jamiyatda muhim ijtimoiy ahamiyatga molikligidan dalolat beradi.

Pedagog mahorat rus tili lug'atida «biror sohada mohirlik darajasi» deb talqin etiladi.

Pedagog mahorat tushunchasiga yagona ta'rif ham yo'q, chunki ba'zi mualliflar bu fazilat – pedagogning yagona xususiyatlari deb hisoblashsa, boshqalar bu bilim, ko'nikma, malakalar ekanligini aytadi, uchinchilari-bu ikkalasini birlashtiradi, xususiyatlarini aytsa, boshqa hollarda faoliyatni amalga oshirish darajasini aytadi va hokazo.

Pedagog mahoratining asosi ilk davrdayoq pedagogning tegishli bilim yurtida tayyorgarligida shakllanadi. Shuning uchun mahorat asosi bo'lib, yuqori kasb mahoratining zarur, ammo yetarli bo'lmagan sharti hisoblanadi.

Ta'lim muassasasida ishlashning birinchi yilidanoq pedagog tajribaning intensiv shakllanishi boshlanadi, uning boshi pedagog amaliyot davriga to'g'ri keladi. Aynan pedagog faoliyat tajribasi pedagog oliy o'quv yurti bitiruvchisi ta'lim mobaynida olmagan narsalarini to'ldiradi va mujassamlashtiradi. Unda kasbiy-pedagog faoliyatini amalga oshirish tajribasi, ijodiy faoliyat tajribasi, shaxs fazilatlarini namoyon etish tajribasi birlashtiriladi va uyg'unlashtiriladi. Amaliy pedagog faoliyat jarayonida barcha oingan bilimlar takomillashadi, shaxs fazilatlarini va pedagogik qobiliyatlar rivojlanadi, kasbiy ko'nikma va malakalar shakllanadi. O'z malakasiga ko'ra mohir pedagog darajasiga ko'tarilguncha bir necha yil o'tadi.

Pedagogning bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik mahorati asoslarining tarkibiy qismi sifatida 2 darajada bo'lishi mumkin.

Kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonida va kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida egalangan-pedagogik tajriba jarayonida.

Ya'ni birinchi holda pedagog oliy ta'lim muassasalarida o'qish paytida olingan boshlang'ich pedagogik tajriba bo'lishi mumkin, ikkinchi holda kasb-amaliy kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida olingan pedagogik tajriba bo'ladi.

Albatta, birinchi daraja qancha yuqori bo'lsa, ikkinchisiga erishish oson, pedagogik mahoratga erishish qisqa bo'ladi.

Shakllanishi lozim bo'lgan pedagog mahorat poydevori quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni qamrab oladi: pedagogning shaxsi, bilimlari va pedagogik tajribasi, bunda har bir tarkibiy qism o'zlashtirilishi mumkin. Demak pedagog mahorat asoslari har bir pedagogda shakllantirilib, pedagog mahorat darajasiga ko'tarilishiga imkon beruvchi negizni yaratib berishi mumkin.

Amaliy faoliyatda amalga oshiriladigan pedagogik mahorat asoslari kasbiy yetuklikning belgisidir.

Pedagog mahoratining to'rtta mustaqil elementini ajratib ko'rsatish mumkin:

- O'quvchilar jamoaviy va shaxsiy faoliyatini tashkil qila olish mahorati;
- Ishontirish mahorati;
- Bilimlarni berish va faoliyat tajribasini shakllantirish mahorati;
- Pedagogik texnikani egallash mahorati.

Demak, pedagogik mahorat faoliyat rivojlanishining, pedagogik texnologiyani egallashning yuqori darajasini ifodalab, shu bilan birga pedagogning umuman shaxsini, uning tajribasini, fuqarolik va kasbiy o'rnini ham ifodalaydi.

Pedagogik mahoratga erishish usullari:

Pedagogik mahoratga erishish usullariga quyidagilar kiradi:

1. Malaka oshirishning turli shakllarida ta'lim olish;
2. Mustaqil ravishda o'z pedagogik bilimlarini oshirish;
3. Ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish va ulardan foydalanish;
4. Shaxsiy pedagogik tajribani tahlil etish va umumlashtirish;
5. Metodik hay'at, sho'ba va birlashmalar ishida ishtirok etish;
6. Ochiq darslarga kirish va udlarni tahlil etish, o'zaro darslarga kirish;
7. Pedagogik o'qishlar, konferensiyalar va seminarlar ishida ishtirok etish;
8. Pedagogik murabbiylik;
9. Metodik ishlanmalar tayyorlash va boshqalar.

Pedagogik mahoratni oshirish manbalari

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog kadrlari amalga oshiradigan uslubiy ishlari juda xilma-xil bo'lib, ularning quyidagi turlari mavjud:

- Jamoaviy uslubiy ishlar: pedagogik kengash, pedagogik o'qish, uslubiy komissiyalar, ilg'or pedagogik tajribalar, muammoli seminarlar, ilmiy amaliy konferensiyalar.
- Yakka tartibdagi (shaxsiy) uslubiy ishlar: rahbar, pedagog va tarbiyachikdrlarining mustaqil uslubiy ishlari; rahbar, pedagog, tarbiyachi kadrlarining o'z ustida mustaqil ishlashi; rahbarlarning pedagog kadrlar bilan yakka tartibdagi uslubiy ishlari.
- O'quv-uslubiy (pedagogika) xonasi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalaridagi uslubiy ishlar tizimi

O'quv muassasalarida bajariladigan uslubiy ishlarning asosiy vazifalari quyidagilar:

-o'quv muassasasi muhandis-pedagoglarining g'oyaviy siyosiy, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish;

-o'quvchilarni davr talabida tarbiyalash va ta'lim mazmuni, shakli va uslublarini takomillashtirish;

-ta'lim-tarbiya birligini ta'minlash va umumlashtirish hamda kasbiy tayyorgarlikdagi o'zaro birligini ta'minlash;

-o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilg'or pedagogik, ishlab chiqarish va fan texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish va tadbiq etish;

-ilmiy uslubiy ishlarini amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini o'rganish va amalga oshirish.

Ilmiy uslubiy ishlar muhandis-pedagoglar faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, uni bajarish o'quv muassasasi pedagog hamkorlarining hammasi bajarishi shartdir.

Shunday qilib, pedagog faoliyati ilmiy asosida tashkil etish deganda-o'quvchilarning, muhandis-pedagoglarning ish sharoitini yaxshilash, o'qitish tashkil qilishni va usullarini takomillashtirishni, bunga fan va texnika yutuqlarini tadbiq etish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishni ta'minlash, tarbiyani shakllantirishga qaratilgan uslubiy va tashkiliy majmualar tadbirini tushunamiz.

Uslubiy ishlar mazmuni

O'quv muassasalarida amalga oshiriladigan uslubiy ishlar ikki turga bo'linadi: jamoaviy va shaxsiy.

Jamoaviy uslubiy ishlarni o'quv muassasalaridagi: pedagogik kengash (ped. sovet), uslubiy komissiyalar, ilg'or pedagogik va amaliy tajribalar manbai, muammoli seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar (anjumanlar), pedagogik o'qishlar orqali amalga oshiriladi.

Shaxsiy uslubiy ishlarga o'quv muassasalardagi har bir o'qituvchiga injener-pedagog, ustalarning o'z malakalarini oshirish ustida olib borilayotgan tinimsiz mehnati tushuniladi.

Uslubiy ishlar asosan dars berishda o'quv jarayonini takomillashtirish, unga yangi usul va vositalarni qo'llashni amalga oshirishni mo'ljallangandir.

O'quv muassasidagi keng qirrali va xilma-xil uslubiy ishlarni o'quv muassasidagi o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini tashkillashtiradi. Ya'ni, o'quv muassasi bo'yicha uslubiy ishlar rejasini tuzadi, ammo umumiy rahbarlikni direktor olib boradi.

Uslubiy ishlarning asosiy vazifalari:

- **o'quv muassasidagi o'qituvchilar, ishlab chiqarish ustalari, injener-pedagoglarning pedagogik malakasini g'oyaviy-siyosiy darajasini, kasbiy mahoratini oshirish;**
- **o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yangi zamonaviy usullarini o'quv jarayoniga qo'llash;**
- **o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini qo'llash, umumlashtirish, tanishish va boshqalar.**

Jamoaviy uslubiy ishlar mazmuni va tashkil qilish.

1. Pedagogik kengash (ped.sovet). Pedagogik kengash o'quv muassasining asosiy organi bo'lib, u o'quv muassasidagi asosiy masalalarni muhokama etish, xulosalar qabul qilish uchun tuzilgan bo'lib, «Pedagogik kengash haqidagi Nizom» asosida faoliyat ko'rsatadi, va yillik plan asosida ish yuritadi. Pedagogik kengash ish rejasida asosan quyidagi masalalar yoritiladi va amalga oshiriladi: o'quv muassasasi pedagog jamosining o'tgan davrda bajarilgan ishlar natijasi va oldinda turgan vazifalar; uslubiy ishlar rejasi va xodimlarning malakasini oshirish, ustalarning tarbiyaviy ish rejasi, yarim yillik, yillik imtihon natijalari; ta'til vaqtlarida o'quvchilar bilan sport ishlarini tashkil etish; biblioteka holati; ishlab chiqarish amaliyoti natijalari va boshqa ko'p masalalar pedagogik kengash ishida yil mobaynida tasdiqlanadi va har oyda bir marta o'tkaziladi. Pedagogik kengash ish rejasidagi har bir masala bo'yicha ma'sul xodim tayinlanadi va u bu masalani kengashga tayyorlaydi, kerak bo'lsa, bu masalani tayyorlashga boshqalarni ham jalb qilishi mumkin.

Pedagogik kengash qarorini rais-direktor va kotib qo'l qo'yib tasdiqlaydi. Kengash qarorining bajarilishini direktor va uning o'quv ishlari bo'yicha muovini nazorat qilib boradi.

Pedagogik kengash xujjatlari: ish rejasi, bayonnomalar, ma'ruzalar va qarorlar direktor muovinida saqlanadi.

Uslubiy komissiyalar:

Uslubiy komissiyaning asosiy vazifasi o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, o'qituvchilarga, injener-pedagoglarga, ustalariga amaliy-uslubiy yordam berishdir.

O'quv muassasida uslubiy komissiyalar, tayyorlov yo'nalishlari, fanlar bo'yicha va amaliyotlar bo'yicha tashkil qilinishi mumkin. Uslubiy komissiya tarkibi va soni pedagogik kengash tavsiyasiga ko'ra direktor buyrug'i bilan tayinlanadi. Uslubiy komissiya tarkibiga malakali o'qituvchilar, ustalar kiradi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va o'quv muassasalarida fanlar bo'yicha uslubiy komissiya tuziladi: fizika va elektrotexnika; ximiya va biologiya; o'zbek va rus tili; tarix va boshqalar, umumkasbiy fanlar, maxsus fanlar, ishlab chiqarish ta'limi va boshqalar. Ba'zi hollarda uslubiy komissiyalar tuzishi mumkin fanlarni guruhlashtirish bo'yicha, misol uchun, tabiiy fanlar: fizika, ximiya, biologiya; gumanitar fanlar, maxsus fanlar va hokazo.

Uslubiy komissiyalar o'z fanlari, sikl fanlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish, yangiliklarni dars jarayonida tadbiiq etish, o'qitish uslub, vositalarini takomillashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, fanlarning ketma-ketlikda o'tishini belgilash, o'quv uslubiy materialini muhokama qilish va o'quv dasturini o'rganish, takomillashtirish, ishlab chiqarish ishlar ro'yxati va ishlab chiqarish texnologik xujjatlar hamda nazorat ishlari mazmunini tahlil etish, texnik vositalardan samaradorli foydalanish va boshqa muammolar bilan shug'ullanadi.

Pedagogik kengash muassasasining o'quv jarayoni va uslubiy ishlarini muhokama etib qaror qabul qiluvchi kengashdir.

Pedagogik kengash a'zolari: muassasasi direktori (rais); uning muovnlari, o'quv bo'lim mudiri, uslubiy komissiya raislari va yetakchi muhandis-pedagoglar, katta ustalar, kasaba birlashmasi va yoshlar ittifoqi raislari, ilmiy tadqiqot instituti va ishlab chiqarish korxonasiidan yetakchi mutaxassislar. Bu tarkibdagi kengash a'zolari ko'riladigan masalalarni, ya'ni o'quv-tarbiyaviy jarayon masalalarni, o'quv ishlab chiqarish jarayoni hamda uslubiy ishlarga oid muammolarni hal qiladi va tavsiyalar qabul qiladi.

Pedagogik kengashning asosiy uslubiy funksiyasi o'quv muassasida uslubiy ishlarni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalar qabul qilish, kasbiy malakalarini oshirish ish rejalarini tasdiqlash va xakozolar.

Pedagogik kengash o'z faoliyatini ilm o'quv muassasasining uslubiy ishlar ish rejasi asosida amalga oshiradi.

Pedagogik kengashning hamma a'zolari o'quv-tarbiyaviy jarayonga, uslubiy ishlarga oid masalalarni uning ish rejasiga taklif etishi mumkin.

Pedagogik kengashning qarori o'quv muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi va qarorni hamma bajarishi shart.

Metodik kengashlar-bu jamoaviy uslubiy ish turi bo'libina qolmay balki alohida muammolarni hal etishni o'z ichiga oladi (pedagogik, uslubiy).

Metodik kengashlarning-instruksiyali, axborotli va hisobotli turlari mavjud.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar - o'qituvchilar tomonidan va boshqa mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga mo'ljallangan mavzu bo'yicha qilingan nazariy va amaliy ishlar natijasining muhokamasi, qaror, tavsiyalar qabul qilish.

Pedagogik o'qishlar - ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, umumlashtirish va tadbiiq etish maqsadida o'tkaziladi hamda o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid masalalarni muhokama qiladi.

Pedagogik o'qishlar tashkil qilishda o'quv muassasalarida ko'rgazmalar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Didaktik vositalar o'quv uslubiy qo'llanmalar o'quvchi ish rejalaridan namunalar, darslar rejasi, konspekti, uslubiy qo'llanmalar va boshqalar.

Pedagogik o'qish jarayonida tashkiliy ko'lamda eng yaxshi ma'ruza tanlab olib uni tuman, viloyat pedagogik o'qishlarga tavsiya etiladi va chop etishga tavsiya etiladi.

Ilg'or pedagogik tajriba-asosan o'quv muassasasi muhandis-pedagoglarining pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Bu ilg'or pedagogik tajribalar o'quv muassasasida va yana boshqa joyda o'rganilishi va oshirilishi mumkin.

Muammoli seminarlar – bu seminarlarning asosiy vazifasi ba’zi muammolarni chuqurroq o’rganish bo’lib, bunda muhandis-pedagoglar, ustalar ma’ruzalar o’qishadi va muhokama qilinadi.

Uslubiy komissiyalar-o’quv muassasasida fanlar, ya’ni bir-biriga yaqin fanlar bo’yicha eng kamida beshta muhandis-pedagog va usta bo’lgan taqdirda tuzilishi mumkin, ba’zi hollarda chilangarlik, metallarga ishlov berish mutaxassislari bo’yicha ham tuzilishi mumkin.

Agarda o’quv muassasasida bitta fandan 3 dan ortiq muhandis-pedagoglar bo’lsa fan bo’yicha ham tuzilishi mumkin. Masalan: materialshunoslik, matematika, fizika va boshqalar. Uslubiy komissiya raislari eng tajribali o’qituvchi, ustalardan shakllanadi.

Uslubiy komissiyalar o’z fanlari, maxsus fanlari bo’yicha o’quv jarayonini tashkil qilish, yangiliklarni dars jarayonida tadbiq etish, o’qitish, uslubiy vositalarini takomillashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog’lash, fanlarning ketma-ket o’tilishini belgilash, o’quv uslubiy materiallarni muhokama qilish va boshqalar bilan shug’ullanadi.

Fanga oid muammolarni uslubiy komissiyalar hal qiladi. Ya’ni ular: o’quv muassasalarini o’rganish, takomillashtirish, ishlab chiqarish ro’yxati va mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik xujjatlari; nazorat ishlari mazmunini tahlil etish, o’quvchilarning o’zlashtirishini tahlil etish, muhokama etish; ilg’or pedagogik, ishlab chiqarish tajribalarini o’quv jarayoniga tadbiq etish, texnik vositalardan samaradorlik bilan foydalanish va boshqalarni amalga oshiradi.

Uslubiy komissiyalar o’z ishlarini istiqbolli tematik va ish rejalari asosida amalga oshiradi va bu rejalarda asosiy masalalar bo’lib quyidagilarni rejalashtirish zarur: yangi o’quv yiliga tayyorgarlik, imtihonlarga tayyorgarlik, o’quvchilar malakasini oshirish, metodik ko’rsatmalar ishlab chiqish, ma’ruzalar mavzularini aniqlash, referatlar tematikasini belgilash, tashkiliy tadbirlar, ochiq darslar, ta’lim, o’zaro darslar kirish va boshqalar.

O’qituvchi va muhandis-pedagoglarning shaxsiy uslubiy ishlari (mustaqil) va uning mazmuni

Muhandis-pedagogning maxoratini uning tinimsiz ishlash, maqsadga yo’naltirilgan tizimli ijodiy mehnatining natijasidir. Shuning uchun ham o’qituvchi agarda o’z ustida ishlab bormasa, uning o’qituvchilik xususiyati yo’qolib boradi. Bu bo’lmazligi uchun, ya’ni u har doim o’z fani mutaxassisligi bo’yicha maxsus va pedagogik bilimlarini oshirib borishi kerak. Agarda, u o’zining tajribasi bilan cheklanib qolsa ham bo’lmaydi.

Pedagogik mahoratini oshirib borishning majburiy xarakteridan biri, o’z pedagogik faoliyatiga ijodiy yondashishga va yangilikka intilib borishi kerak.

Pedagoglarning o’quv tarbiyaviy jarayonidagi faoliyat va pedagogik mahoratini oshishi ko’p jihatdan u ishlaydigan muhitga, jamoasining shakllanganligiga ham bog’liq.

Kasb-hunar ta’limi tizimida o’qituvchilarning malakasini oshirish turlariga: malaka oshirish kurslari va o’z ustida mustaqil ishlash (shaxsiy) kiradi. Bular o’z navbatida uzviy bog’langan.

O’z ustida ishlashning eng yuqori shakliga o’qituvchilarning ilmiy ishi kiradi.

O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o’quv muassasalarida o’quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishni ko’p jihatdan o’qituvchilarning, injener-pedagoglarning o’z ustida mustaqil ishlab o’zlarining malakalarini oshirib borish bilan bog’liqdir. Shuning uchun ham ta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatayotgan har bir xodimdan o’z ustida mustaqil ishlash ish rejasi bo’lishini talab qilinadi. Bu ish rejasi quyidagi bo’limlardan iborat bo’lishi qabul qilingan:

- I. Siyosiy-g’oyaviy darajasini oshirib, siyosiy adabiyotlar, muammoli seminarlarda faol qatnashish, kuzatishlarda qatnashish.
- II. Pedagogik malakani oshirish, fanlar bo’yicha ilmiy-amaliy, uslubiy adabiyotlarni o’qish, dokladlar yozish, ochiq darslar o’tkazish.
- III. Pedagogik bilim va uslubiy tayyorgarligini oshirish.
- IV. Ma’naviyat va nafosat ko’rsatkichlarini shakllantirish.

Mustaqil o’z ustida ishlash va uslubiy ishlash asosan quyidagi to’rt bo’limdan iborat

(tabl. 3)

1. G'oyaviy-siyosiy ma'rifiy darajasini oshirish
 2. Ilmiy-texnikaviy bilimlarni takomillashtirish
 3. Pedagogik bilimi va uslubiy tayyorgarligini oshirish
 4. Ma'naviyat va nazorat ko'rsatgichlarini shakllantirish
- Mustaqil ishlash orqali o'z malakasini oshirishni yana boshqa turlaridan biriga seminarlarga, pedagogik o'qishlarga, konferensiyalarda o'z ilmiy natijalari, amaliy ish tajribasiga tayyorgarlik ko'rish xisoblanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining **o'quv metodik (pedagogika) xonasining** asosiy vazifalari:

- Ilg'or pedagogik tajribaning targ'ib qilinishini tashkil etish
- Umumta'lim, maxsus va amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchilariga pedagogik mahorat va o'quv-tarbiyaviy faoliyat sifatini oshirishda yordam ko'rsatish
- O'quv-tarbiyaviy va metodik ishlar masalalari bo'yicha materiallar to'plash va ularni tartibga solish
- Kasb-hunar kollejida ilmiy-pedagogik axborotlar to'plash
 - O'quv metodika xonasining faoliyat mazmunini quyidagilar tashkil qiladi:
- Kasb-hunar kolleji xodimlarining o'zaro pedagogik tajriba almashishi bo'yicha seminarlar tashkil etish.
- Pedagogik va boshqa mavzularda ma'ruzalar tashkil etish.
- Metodik ko'rgazmalar tashkil etish.
- Pedagogik mashg'ulotlar tashkil etish.
- Kasb-hunar kollejida pedagogik o'qishlar tashkil etish.
- Umumta'lim, maxsus fanlar va amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchilari uchun pedagogik maslaatlarni tashkil etish.
- Pedagogik yangiliklar bo'yicha konferensiyalar tashkil etish.
- Kasb-hunar kollejida muayyan mavzular bo'yicha metodik ishlar yakuniga bag'ishlangan konferensiyalar tashkil etish.
- Kasb-hunar kolleji xodimlarining pedagogik mehnat fidoiylari bilan uchrashuvlar tashkil etish.
- O'quv metodik xonasi quyidagilar bilan jihozlangan maqsadga muvofiq bo'ladi:
- Namunaviy hamda ishchi o'quv rejalar va dasturlar
- Rejalashtirish, hisobga olish va hisobot xujjatlarining namunalari
- O'quv xonasi, laboratoriya va ustaxonalarni jihozlash me'yorlari, kataloglar, ro'yxatlar, pasport
- Me'yoriy va yo'riqli xujjatlar: nizomlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va hokazo
- Kasblar bo'yicha o'quv-ishlab chiqarish ishlari ro'yxati
- Ilmiy pedagogik adabiyotlar, pedagogik jurnallar, gazetalar va boshqa davriy nashrlar
- Metodik ishlanmalar, o'qituvchilarning ma'ruzalar matnlari
- Yo'riqlar va texnologik xaritalar to'plami
- Nazariy va amaliy kasbiy ta'lim fanlari bo'yicha test topshiriqlari to'plami
- O'MKHT ilmiy va o'quv metodik tashkilotlarining metodik tavsiyalari
- Ta'limning «faol» shakllari va metodlaridan foydalanish bo'yicha materiallar
- Darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, ma'lumotnomalar.

Pedagogik mahorat ko'rsatgichlari va mezonlari

Amaliy faoliyatda amlga oshiriladigan pedagogik mahorat asoslari kasbiy yetuklikning belgisidir, lekin uning darajasini pedagogik vazifalar qanday hal etilishi va pirovardida qaysi natijalarga erishilishidan ko'rish mumkin.

Olimlar pedagogik mahoratni baholashning besh darajali tizimini taklif qiladi:

2001 / 2002 o'quv yili uchun «Teriga ishlov berish» tayyorlov yo'nalishidagi ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha (muhandis- pedagoglar, ustalar) uslubiy komissiyasining ish rejasi

Mavzu: Darsni takomillashtirish

T/R	Ish mazmuni	Ma'sul	Izoh
Avgust			
1	Me'yoriy xujjatlar. Yangi o'quv yildagi uslubiy komissiyaning vazifalari	Uslubiy komissiya raisi	
2	Yangi o'quv rejalari, dasturlar, o'quv dasturiy xujjatlarga o'zgartirishlar kiritish	Pedagoglar, ustozlar	
3	Istiqbolli-tematik rejalarni ishlab chiqish va yo'ldirish	Uslubiy komissiya	
4	Teriga ishlov berish bo'yicha ustasi kasbi bo'yicha ishlab chiqarish ishlari ro'yxati muhokamasi	Katta ustoz	
Sentyabr			
1	Uslubiy komissiyaning yillik ish rejasini tasdiqlash	Uslubiy komissiya raisi	
2	Ustozlarning istiqbolli-tematik ish rejasini (yarim yillik) muhokamasi	Ustalar	
3	O'z bilimini oshirish rejasini tasdiqlash	Uslubiy ko-missiya rejasi	
4	Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va tadbiq etish rejasini tasdiqlash	Pedagoglar, ustalar	
Oktyabr			
1	Hozirgi zamon darslariga qo'yiladigan talablar	<i>O'quv ishlari bo'yicha direktor muovini</i>	
2	Ishlab-chiqarish ta'limi va maxsus fanlar bo'yicha darslarda faol usullarni qo'llash	Uslubiy komissiya raisi	
3	Ochiq darslar muhokamasi: 1. Tekis yuzalarga ishlov berish (Abbosov T.)	Pedagog	
Noyabr			
1	Maxsus texnologiya va ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida iqtisodiy tarbiya	Uslubiy komissiya raisi	
	O'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini dars jarayonida o'qitish	Pedagoglar	
	Texnik vositalarni nazariy va amaliy darslarda qo'llash	Uslubiy komissiya raisi	

**«Ishlab chiqarish ta’limi» bo’yicha muhandis-pedagog
Turg’unov T.ning o’z bilimini oshirish va mustaqil uslubiy**

ISHLAR REJASI

T.r.	Ish mazmuni	Muddati	Izoh
I.	G’oyaviy-siyosiy darajasini oshirish 1.1. I.A. Karimovning asarlarini o’rganish 1.2. O’quvchilarning umumta’lim va kkasbiy fanlar bo’yicha bo’limlarga qo’yiladigan talablar (referat yozish) 1.3. Iqtisodiyot va siyosatga oid seminarlarda qatnashish	Sentyabr, Iyun Aprel Har doim	
II.	Pedagogik malakasini oshirish		
	2.1. Darslarni takomillashtirishga oid adabiyotlar, o’qish 2.2. mavzu bo’yicha ma’ruza tayyorlash 2.3. Ochiq dars o’tkazish	Sentyabr, May Fevral Aprel	
III.	Fan bo’yicha ilmiy-nazariy bilim darajasini oshirish		
	Raqobatdosh kadrlarni tayyorlash bo’yicha uslubiy tavsiyalarni o’rganish Ko’rsatmali qo’llanmalar tayyorlash	Y!il davomida Mart	
VI.	Ma’naviyat va uslubiy darajasini oshirish		
	4.1. «Aqliy mehnat madaniyati» mavzusida suhbat o’tkazish va x.k.	Oktyabr	

Umumkasbiy fanlar bo'yicha uslubiy komissiya ish rejasi

Mavzu: Nazariy ta'lim darslarini takomillashtirish

T/r	Bajariladigan ishlar mazmuni	Bajarish muddati	Mas'ul
1	1. Komissiyaning ish rejasi muhokamasi 2. Kalendar-tematik rejalarini tasdiqlash	Sentyabr	Rais O'qituvchilar
2	1. Elektrotexnik fanlar bo'yicha ochiq darslar muhokamasi 2. Elektrotexnika bo'yicha metodik ishlanma muhokamasi «darsda texnik vositalari majmuasidan foydalanish»	Oktyabr	O'qituvchi Elektronika o'qituvchilari
3	1. Darslarga o'zaro kirish natijalari muhokamasi 2. Yangi o'quv uslubiy adabiyotlar muhokamasi 3. Test savollari muhokamasi va boshqalar	Dekabr	<i>O'qituvchilar ustalar</i> Kutibxonachi

.2. O'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiiq etish muammolari

Ta'lim-inson faolligini belgilaydigan muhim bir tapmoqqa aylanmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimida inson faoliyati bilan bog'liq ko'pgina muammolarni hal etish zarur. O'z-o'zidan ko'rini6 turibdiki, bu vazifalarni ilmiy texnika jarayonining o'zgarishi bilan bog'liq ta'limning yangi nazariyasini yaratish, ya'ni fanni jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylantirish va amaliy ko'rsatkichlarini rivojlantirish natijasida amalga oshirish mumkin.

Respublikamizda ta'lim-tar6iya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy puh bilan sug'orish, samarali an'anaviy uslublarni saqla6 qolgan holda yangilarni yaratish va amaliyotda qo'llash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bog'liq. Bu yo'nalish keng qamrovli bo'lib, uning sohalari kengayi6, mazmuni takomillashi6 bormoqda, ya'ni u ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'limning butun jarayonini aniq reja asosida tashkil qilish hamda o'quv jarayoning maqsadra muvofiq tashkil qilish hisobiga uni individuallashtirishni ko'zda tutadi.

"Pedagogik texnologiya" to'g'risida ko'plab tushunchalar mavjud bo'lib, ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Texnologiya-bu sa'nat, mahorat, ko'nikma, metodlar yig'indisi.

Texnologiya-bu inson faoliyati va tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan madaniy tushuncha.

Texnologiya-bu texnik jixatdan ahamiyatli sifat va qo6iliyatning intellektual qayta ishlanishi.

Texnologiya-bu qandaydir jarayonni amalga oshirish metodlari haqidagi bilimlar yig'indisi.

Texnologiya-bu o'quv jarayoniga tashkiliy, maqsadli pedagogik ta'sir o'tkazish natijasi.

Texnologiya-bu o'quv jarayonini amalga oshirish texnikasi.

Texnologiya-bu ta'lim maqsadiga erishishning kafolatlangan vositasi.

Texnologiya-bu rejalashtiriladigan natijalarga erishish jarayonining bayoni.

Texnologiya-bu amaliyotga joriy qilinishi kerak bo'lgan ma'lum bir pedagogik tizimning loyihasi.

YuNESKOning bergan ta'rifiga ko'ra: Pedagogik texnologiya-inson va texnika resuslarini hisobga olgan holda butun ta'lim jarayonini va bilimlarini o'zlashtirishning baholashning tizimli metodi va samaraliroq ta'lim shakllariga erishish uchun ular o'rtasidagi o'zaro ta'siridir.

Kasbiy pedagogika "darsligida shunday tavsif beriladi: Pedagogika texnologiya-bu pedagogika fani va maktab amaliyotini rivojlantirishda uzvlikni saqlab qolgan holda pedagogika va metodikaning metodologik va intellektual vositalarini radikal ravishda yangilash.

Bizning fikrimizcha "pedagogik texnologiya" tushunchasi barcha boshqariluvchi tashkiliy qismlar va ularning bog'liqligi tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazorat qilish yo'li bilan pedagogik samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarish hamda bu borada tizimli yondashuvni joriy etishni ifodalaydi. "Pedagogik texnologiya"ning ta'limidagi amaliylik hamda tashkiliy-uslubiy imkoniyatlarini amalga oshirishga yo'naltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tatbiq etilishi butun jahon pedagoglarining unga e'tiborini kuchaytirmoqda. "Texnologik" yo'nalishga turlicha qarashlar mavjud, ba'zi pedagoglar "pedagogik texnologiya" da ta'limni differensiyalashtirish vositasini ko'rmoqdalar, boshqalarni undagi kim mehnat sarflab yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari, "pedagogik texnologiya" ni barcha ta'lim oluvchilarni oldindan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga yetkazish mumkinligi qiziqirmoqda. Ba'zi pedagoglar ta'limini "texnologiya" lashtirish yordamida ommaviy ta'lim amaliyotida tub burilish yasashga umid bog'lagan edilar.

Pedagog texnologiyani amalga oshirishning umumlashgan ketma-ketligini quydagicha amalga oshirilishi maqadra muvofiq bo'ladi (biz tajriba ishlarini amalga oshirishda undan uslubiy asos sifatida foydlanganmiz):

-talabalarining istiqboldagi faoliyatini tahlil qilish, ta'lim jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan maqad va vazifalarni belgilash;

-umummehnat va kasbiy malakarni rivojlantirishda ta'lim vositalarini qo'llashga oid ta'lim uslubi mazmuni ishlab chiqish;

-oliy o'quv yurlari o'quv dasturlarida talabalar tomonidan ta'lim vositalaridan foydalanish texnologiyasini o'zlashtirishlari uchun vaqt mezonini belgilash;

-talabalarda ko'nikma va malakarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish;

-talabalarda bilim ko'nikma va malakalarning sifatini nazorat qilish bilan bog'liq obyektiv nazorat o'tkazish va testlar tizimini ishlab chiqish;

-ishlab chiqilgan "pedagogik texnologiya" ni amalda sinash va uni o'quv jarayoniga tatbiq chiqish;

Keltirilgan bosqichlarning tavsifi amalda o'qituvchi faoliyatining davriy algoritmini ifodalaydi va ularning mos ravishda maqsadlar, aniq nazorat usullari butun ta'lim jarayonini qamrab oladi. Ushbu jarayon standartlashtirilgan ta'lim maqsadi asosida pedagogik tizim vositasida amalga oshiriladi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki pedagogika fanidan hap qanday pedagogik texnologiya asosini tizim tashkil etadi. Bunday pedagogik texnologiyani rejalashtirilgan samarasi uning qanday tizimlashtirilganligi va tuzilishiga bog'liq:

Pedagogik tizim tushunchasi ko'plab pedagog olimlar tomonidan tahlil qilingan bo'lib , 80-yillar oxirigacha aniq bir to'xtamga kelinmagan.

Pedagogika tizim tushunchasi va uni tashkil etuvchi variant elementlarini birinchi bo'lib akademik V.P.Bespalko asoslab berdi.

V.P.Bespalko ta'rifi bo'yicha "Pedagogik tizim (PT) deganda ma'lum sifatlarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishga aniq maqsadli tashkiliy pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun talab etiladigan o'zaro bog'langan uslub, vosita va jarayon majmuasi tushuniladi" [23]. Jamiyatning

ustuvor qadriyatlari shaxs shakllanishiga qo'yiladigan talablar va uning maqsadini belgilab beradi.

Pedagogik texnologiya yaratilish bosqichlari akademik V.P.Bespalko tomonidan asoslangan bo'lib [23], U ta'lim turi hamda tadbqiq qilinishdagi shakli, darslik, metodik tavsiyanoma, EHM dasturlaridan qat'iy nazar umumiy hisoblanadi. Shu asosda biz pedagogik texnologiyani loyihalashni quydagi bosqichlarda amalga oshirdik (4-shakl):

-birinchi bosqichda kasb ta'limi fakulteti talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatini tahlil qilindi.

Ushbu tahlilda talaba faoliyati istiqbolini qamrab olgan kelajak faoliyatida duch keladigan vazifalar aniqlab olindi.

-ikkinchi bosqichda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarni rivojlantirishning psixofiziologik asoslari; o'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqildi va ta'limning hap bir davri uchun uning mazmuni aniqlab berildi.

-uchinchi bosqichda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarning tarkibiy qismlari, shakllantirish jarayoni; malaka kuchishi va moslashuvchanligi xususiyatlari, umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta'lim vositalarini qo'llash texnologiyasi ishlab chiqildi;

-to'rtinchi bosqichda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarni rivojlantirish didaktik jarayonining eng muvofiq ta'lim shakllari aniqlandi. Uning natijasi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish pedagogik tizimida o'qituvchi va talaba munosabatlari mazmuni ishlab chiqildi;

-beshinchi bosqichda umummehnat va kasbiy malakalarni qo'llashga oid ta'lim metodi mazmuni ishlab chiqildi, uning natijasi sifatida umummehnat ko'nikma va malakarni rivojlantirish jarayonida trenjerlardan foydalanish texnologiyasi yaratildi;

-oltinchi bosqichda ta'lim maqsadi asosida ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi ishlab chiqildi hamda o'qyv qo'llanmalari mazmuni bilan umumlashtirildi, natijalar belgilangan ko'rsatkichlari darajasida ta'lim jarayoniga tadbqiq etildi;

-yettinchi bosqichda-o'zlashtirish darajasini baholash mezonlariga va ta'lim maqsadlariga mos keluvchi talabalarning bilim va ko'nikmalarini aniq nazorat qilish bilan bog'liq kuzatishlar o'tkazildi va testlar ishlab chiqildi.

-sakkizinchi bosqichda ta'lim maqsadlariga erishish imkonini beruvchi o'quv mashg'ulotlarining tuzilmasi va mazmuni shakllantirildi hamda talabalarning umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi;

-to'qqizinchi bosqichda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakarni rivojlanganlik darajasini baholashning ko'rsatkich va mezonlari tajriba-sinov ishalari asosida sinab ko'riladi va ta'lim jarayonining yakunlanganlik darajasi ($K > 0,7$ ko'rsatkichga erishish maqsadida) tekshirildi. Bosqich natijasida loyihaga tegishli tuzatishlar kiritildi.

Ko'nikma va malakalarni faoliyat tavsifiga ko'ra tasniflash mumkin (5-shakl). Misol uchun, bir guruhni intellektual ko'nikma (eshitish qobiliyati, kitob bilan ishlash, insho yozish, reja tuzish, o'z ishini rejalashtirish, uni qulay tashkil etish) va malakalar (yozuv savotxonligi, ifodasi o'qish) tashkil qiladi. Ikkinchi gypuhga mehnat ko'nikmalari (chizmalar bo'yicha buyum yasay olish) va alohida avtomatlashgan mehnat operasialari (arralash, qirqish, randalash, kesish malakalari) kiradi. Bu gypuhga hapakat va konstruktiv texnik ko'nikma va malakalar kiradi, bunda ikkinchisi hamma vaqt asbob va mashinalar bilan ishlashga bog'liq bo'ladi.

Uchinchi guruhni jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalari (jismoniy tarbiya mashqlarini bajara olish) va malakalar (sakrash, suzish, arqonga chiqish) tashkil qiladi. Odatda gigiyenik ko'nikma va malakalarni ham alohida gypuh sifatida qaraladi.

Bundan tashqari malakalar murakkablik va avtomatlashganlik darajalariga ko'ra ham farqlanadi.

